

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Avazov Ixom Ravshanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Audit kafedrası dotsenti, PhD

ORCID: 0000-0001-8917-6966

E-mail: avazovilh86@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tartibi va qoidalarining hisob siyosatida aks ettirilishi, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning o'z vaqtida, tizimli va yaxlit tarzda shakllantirilishi hamda uni xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etish bo'yicha ilmiy takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, xalqaro moliyaviy hisobot, bosh kompaniya, sho'ba jamiyat, aksiyadorlik jamiyati, aktivlar hisobi, majburiyatlar hisobi.

Аннотация

В статье изложены порядок и правила составления консолидированной финансовой отчётности в рамках учётной политики, раскрыта необходимость своевременного, системного и комплексного формирования консолидированной отчётности, а также представлены научные предложения по её подготовке и представлению на основе международных стандартов.

Ключевые слова: финансовая отчётность, консолидированная финансовая отчётность, международная финансовая отчётность, материнская компания, дочернее общество, акционерное общество, учёт активов, учёт обязательств.

Abstract

The article presents the procedures and rules for preparing consolidated financial statements within the accounting policy, emphasizes the timely, systematic, and integrated formation of consolidated financial reporting, and provides scientific recommendations for preparing and presenting such reports in accordance with international standards.

Keywords: financial reporting, consolidated financial statements, international financial reporting, parent company, subsidiary, joint-stock company, asset accounting, liability accounting.

KIRISH

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichi o'zaro bog'liq kompaniyalar guruhlarini faoliyatining sezilarli ko'lami bilan tavsiflanadi. Yangi tadbirkorlik subyektlarining paydo bo'lishi milliy va xalqaro miqyosda ichki bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim istiqbollari yuzaga kelganini ko'rsatadigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish zarurati chet el kapitalini jalb qilish, rivojlangan mamlakatlardan yangi texnologiyalarni olib kelish va ularni amaliyotga joriy etish bilan bog'liq muhim jarayondir.

Dunyoda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan barcha aksiyadorlik jamiyatlari va yirik kompaniyalar o'zlarining sho'ba va boshqa bog'liq kompaniyalari bilan birgalikda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlamoqda. Shu bois, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini e'tirof etuvchi mamlakatlar soni ortib bormoqda. Hisob va hisobotlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, shu asosda dunyo miqyosidagi ilg'or tajribalarni milliy amaliyotda samarali qo'llash barcha davlatlar uchun dolzarb masalalardan biridir.

O'zaro bog'liq tashkilotlar guruhiga kiruvchi korxonalar boshqaruvi uchun ularning hisob siyosatidagi farqlarni batafsil yoritish va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot uchun zarur tuzatishlarni kiritish muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyat natijalarini tekshirishda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning aniqligi, ishonchligi va shaffofligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri auditorlik tekshiruvini o'tkazish va baholashdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq tuzish masalasi global ilmiy adabiyotda keng yoritilgan bo'lib, bu borada metodologik asoslar asosan IFRS talablari, xususan IFRS 10 "Consolidated Financial Statements", IFRS 3 "Business Combinations" hamda IAS 28 kabi standartlar bilan belgilanadi. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va investorlarga taqdim etiladigan axborotning sifatini oshirish masalalari ko'plab tadqiqotlarda chuqur o'rganilgan. Masalan, Ray Ball va Philip Brown tomonidan olib borilgan fundamental ishlarda moliyaviy hisobotlarning axborot qiymati bozor qarorlariga bevosita ta'sir qilishi ilmiy asoslangan bo'lsa, Stephen Penman moliyaviy ko'rsatkichlar interpretatsiyasi va konsolidatsiya jarayonida sodir bo'ladigan baholash farqlarining kapital tuzilmasiga ta'sirini batafsil tahlil qilgan. Barth, Landsman va Lang tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamli tadqiqotlarda IFRSga o'tish moliyaviy hisobotlarning xalqaro miqyosda taqqoslanuvchanligini sezilarli darajada kuchaytirishi isbotlangan.

Konsolidatsiya jarayonining texnik va metodik murakkabliklari ham ilmiy izlanishlarda alohida yo'nalish sifatida qaralgan. Holthausen va Watts konsolidatsiya jarayonida baholash siyosatlari, amortizatsiya yondashuvlari va aktivlarni qayta baholash natijasida yuzaga keladigan tafovutlarning investorlarga yetkaziladigan ma'lumotlar sifati uchun xavf tug'dirishini ta'kidlaydi. Schipper va Vincent esa korporativ tuzilma murakkablashgani sari konsolidatsiya qoidalariga qat'iy amal qilish, nazorat ulushini to'g'ri aniqlash va "substantive control" tamoyilini asoslash zarurligi ortib borishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, Nobes va Parker milliy buxgalteriya tizimlari bilan IFRS o'rtasidagi farqlar sababli konsolidatsiya jarayonida yuzaga keladigan metodologik tafovutlarni tahlil qilib, rivojlanayotgan davlatlarda standartlarni qo'llashdagi amaliy muammolarni ko'rsatadi.

IFRS 10 talablarining amaliy samaradorligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda nazoratning iqtisodiy mazmunini baholash, "de-facto control" holatlari, maxsus maqsadli tuzilmalar (SPE)ni konsolidatsiya qilish, goodwillni hisoblash va impairment testlarni to'g'ri qo'llash masalalari yetakchi mavzulardan biridir. Leuz va Wysocki

konsolidatsiyada axborot asimmetriyasi kamayishi va investor ishonchi oshishi uchun IFRS talablari bozor intizomini kuchaytirishini ko'rsatgan. Kvaal va Nobes esa IFRSga moslashish davlatlar bo'yicha turlicha bo'lishini, bu esa konsolidatsiya natijalarining taqqoslanuvchanligiga bevosita ta'sir qilishini ilmiy jihatdan asoslagan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish uchun yagona standartlarni qo'llashning o'zi yetarli emas. Epstein va Jermakowiczning o'rganishlari amaliyotda sifatli konsolidatsiya jarayoni korxonaning ichki nazorat tizimi, hisob yuritish intizomi, sho'ba va filiallar o'rtasidagi axborot oqimlarining uyg'unligi, axborot texnologiyalarining qo'llanilishi va professional kadrlar malakasi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bois bugungi adabiyotlarda konsolidatsiyani takomillashtirish faqat standartlar bilan emas, balki boshqaruv hisobining rivoji, korporativ boshqaruv madaniyati, shaffoflik va audit sifatining oshishi bilan ham belgilanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tahlil qilish uchun ma'lumotlar yirik korporatsiyalarning ochiq moliyaviy hisobotlari, IFRS talqinlari va xalqaro audit tashkilotlari hisobotlaridan olinadi. Olingan ma'lumotlar taqqoslama tahlil, normativ-huquqiy tahlil hamda amaliy misollarni ichki va tashqi moliyaviy ko'rsatkichlar bilan solishtirish orqali baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda uchraydigan asosiy xatolar qatoriga bosh va sho'ba tashkilotlarning ma'lumotlarni konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga asossiz ravishda kiritishi yoki kiritmasligi, konsolidatsiya usullaridan noto'g'ri foydalanishi, chet elda joylashgan bosh yoki sho'ba tashkilotlarning hisobot shakllarini noto'g'ri o'zgartirishi, o'zaro bog'liq korxonalar operatsiyalarini hamda ularning natijalarini noto'g'ri aks ettirishi, bog'liq tomonlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalarni ochib bermasligi, guruh ichidagi hisob-kitoblar mos kelmasligi, konsolidatsiya tuzatishlarining noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan holda kiritilishi hamda rahbariyat tomonidan ularning tasdiqlanmasligi, segmentlar bo'yicha axborotlarni ochib berishdagi va tushuntirishlardagi xatolar kiradi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishda xatolarni oldini olish maqsadida eng muhim yo'nalishlardan biri — moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga rioya qilgan holda konsolidatsiyalashgan hisobotni tuzish va uni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdir. Ushbu talab bajarilmasa, aksiyadorlik jamiyatlari yoki davlat unitar korxonalari tarzida tashkil etilgan yangi tuzilmalar o'z mohiyatini yo'qotishi va ularga yuklatilgan vazifalarning bajarilmay qolishi ehtimoli yuzaga keladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tekshirishni tashkil etishda tegishli normativ hujjatlar hamda ichki auditorlik standartlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalasi ham dolzarbdir.

Kompaniyalar guruhlarining moliya-xo'jalik faoliyati va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlangan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni shakllantirish xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish zarurati ushbu

yoʻnalishning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Kompaniyalar guruhlarini ishonchli konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish jarayonida obyektiv qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ushbu hisobotlar koʻplab manfaatdor foydalanuvchilar uchun erishilgan natijalarni baholash, kelgusi davr faoliyatini rejalashtirish hamda qisqa va uzoq muddatli strategik qarorlarni qabul qilish uchun zarur axborotni taqdim etadi.

Bu borada Xoʻjabekov N.B. konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot korxonaning alohida moliyaviy hisobotidan hisob tamoyillarini, jumladan aktivlar va majburiyatlarni tan olish, baholash hamda daromad va xarajatlarni aks ettirish tamoyillarini talqin qilish va qoʻllash nuqtai nazaridan farq qilishini taʼkidlaydi.

Majburiyatlarni konsolidatsiyalash jarayonida bosh va shoʻba korxonalar oʻzaro debitorlik va kreditorlik qarzlarni, boshqa turdagi qarzlarni, avans toʻlovlarini, qimmatli qogʻozlarga qilingan xarajatlarni, kelgusi davr xarajatlarini hamda ular oʻrtasidagi munosabatlar natijasida shakllangan zaxiralarni hisobga olish zarur.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish jarayonida bir qator oʻziga xos xususiyatlar, kengaytirilgan tartiblar va qoidalar mavjud boʻlib, ular bosh va shoʻba korxonalarini guruhini nafaqat yangi iqtisodiy, balki yuridik shaxs sifatida taqdim etish tamoyiliga tayangan holda shakllanadi. Guruhni mustaqil iqtisodiy tuzilma sifatida koʻrib chiqish ushbu yondashuvning asosini belgilaydi. Bunda toʻliqlik tartibi barcha tashkilotlar qayerda joylashganiga yoki qanday faoliyat yuritishiga qaramasdan, ularning mulklari, majburiyatlari, daromad va xarajatlari umumlashtirish jarayonida toʻliq hisobga olinishi kerakligini anglatadi. Yagona hisobot davri tartibi esa birlik nazariyasiga asoslanib, bosh va shoʻba korxonalar guruhi uchun yagona hisobot davri va muddatini belgilashni talab qiladi. Hisob siyosatining oʻzgarishlar tartibi moliyaviy maʼlumotlarning birligi va taqqoslanishini taʼminlashda muhim oʻrin tutadi, u bir necha davr mobaynida izchil qoʻllanilishi va oʻzgarishlar faqat asosli holatlarda amalga oshirilishi lozim. Ushbu tartibga kapital va majburiyatlarni umumlashtirish, ichki aylanma mablagʻlar va oraliq natijalarni istisno qilish, hamkorlikda nazorat qilinadigan jamiyatlarni umumlashtirish, birlashtirilayotgan jamiyatlar doirasini aniqlash hamda konsolidatsiya jarayonida yuzaga keladigan turli rad etishlarni hisobga olish usullari kiradi.

Konsolidatsiyaning maqsadi va huquqiy asoslari korxonalar guruhining umumiy moliyaviy ahvolini haqqoniy koʻrsatish, investorlar, kreditorlar va manfaatdor tomonlarga toʻliq axborot taqdim etish hamda xalqaro va milliy moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq boʻlishni taʼminlashdan iborat. Bu jarayonda konsolidatsiyalanuvchi subyektlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega boʻlib, moliyaviy nazorat mavjud boʻlgan subyektlar, qoʻshma korxonalar IFRS 11 boʻyicha va assotsiyatsiyalashgan korxonalar IAS 28 boʻyicha aniqlanadi. Tugallanmagan ishlar esa yagona hisob siyosatiga keltirilishi shart. Konsolidatsiya jarayoni korxonalar hisobotlarini yigʻish, interkompaniya operatsiyalarni bartaraf etish va barcha moliyaviy koʻrsatkichlarni moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Yakuniy hisobot shakllariga konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat toʻgʻrisida hisobot, foyda va zararlar

hisoboti, kapitaldagi o'zgarishlar hisoboti, pul oqimlari hisoboti hamda izohlar va qo'shimcha ma'lumotlar kiradi.

Konsolidatsiyalash usullari to'liq konsolidatsiya, teng ulushli usul va ekvivalent usuldan iborat bo'lib, ular bosh kompaniya nazorat darajasi va subyektning turiga qarab qo'llaniladi. Konsolidatsiya natijalarini tahlil qilish va tekshirish jarayonida barcha hisoblarning mosligi aniqlanadi, nazoratsiz ulushlar va goodwill bo'yicha hisob-kitoblar qayta ko'rib chiqiladi va hisobot auditorlik tekshiruvi uchun tayyorlanadi. Hisobot odatda yil yakunida taqdim etilib, ma'lumotlar mahalliy qonunchilik hamda xalqaro standartlarga muvofiq ochib beriladi va bosh kompaniya direktorlar kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish omillarini qonuniy tartibga solish xususiyatlarini yanada chuqur anglash maqsadida tegishli qonun hujjatlari o'rganilib, buxgalteriya hisobi normativ-hujjatlari tahlili orqali xalqaro standartlarga muvofiq konsolidatsiyalash jarayonining barcha xususiyatlari aniqlab chiqildi.

Bosh kompaniya sho'ba jamiyatlarning hisobot davri uchun tuzilgan moliyaviy hisobotlari hamda uning kamchilik ulushlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda birlashtiriladi.

Bosh kompaniya o'z sho'ba korxonalarini nazorat qiluvchi tadbirkorlik subyektini sifatida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish va taqdim etilishini talab qiladi, nazorat qilish prinsipini belgilaydi va uni konsolidatsiya uchun asos sifatida qo'llaydi. Investor investitsiyalar obyektini nazorat qilayotgani yoki qilmayotgani, shuningdek investitsiya obyektini konsolidatsiyalash lozim yoki lozim emasligini aniqlashda ushbu prinsipga amal qiladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida buxgalteriya hisobiga qo'yiladigan talablar belgilanadi, investitsion tadbirkorlik subyektini tushunchasi ta'riflanadi va investitsion tadbirkorlik subyektlarining ayrim sho'ba tadbirkorlik subyektlarini konsolidatsiyalashdan istisno etiladigan holatlar ko'rsatiladi¹.

Sho'ba korxonalar choraklik va yarim yillik moliyaviy hisobot tuzish imkoniyatiga ega bo'lmasa, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda sho'ba korxonaning boshqa hisobot davri uchun tuzilgan moliyaviy hisobot ma'lumotlari qo'shiladi, bunda hisobotlarni tuzish o'rtasida o'tgan vaqt uch oydan oshmagan bo'lishi kerak.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash chog'ida bosh jamiyat va unga qarashli barcha sho'ba jamiyatlar moliyaviy hisobotlari aktivlarning bir xil moddalarini, majburiyatlarini, o'z mablag'ini, daromadlari va xarajatlarini satrma-satr konsolidatsiyalash yo'li bilan birlashtiriladi. Ushbu maqsadga erishish uchun konsolidatsiya qilingan moliyaviy hisobotda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak: sho'ba jamiyatga bosh jamiyat investitsiyalarining balans qiymati va bosh jamiyatning har bir sho'ba jamiyatning o'z sarmoyasidagi ulushi; bosh va sho'ba jamiyatlar o'rtasida o'zaro hisob-kitob schyotlari bo'yicha saldo; daromadlar, xarajatlar, dividendlar bo'yicha guruh ichidagi operatsiyalar, shuningdek ushbu operatsiyalar natijasida vujudga keladigan amalga oshmagan foyda va zararlar, qoplanishi mumkin bo'lmagan zararlar bundan mustasno.

¹ "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot" №10-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti.

Kompaniyalar guruhlarini birlashtirish sxemalarini o'rganayotganda birlashtirishning umumiy g'oyasi aniqlanadi. Masalan, yuridik jihatdan mustaqil, ammo iqtisodiy va moliyaviy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan kompaniyalar guruhi mavjud bo'ladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlash masalasi yuzaga kelib, bu guruhning moliyaviy holati va moliyaviy natijalari bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu guruhga kiruvchi har bir yuridik jihatdan mustaqil korxonaga o'z operatsiyalari hisobini yuritishi va moliyaviy natijalarini qayd etishi shart.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tashkilotning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotiga nisbatan hajmi, mazmuni, tuzilishi va ahamiyatlilik darajasi bo'yicha ancha kengroq tushunchadir, ular faoliyat ko'lamining nisbatan ahamiyatsizligini emas, balki uning guruh miqyosidagi birlashgan natijalarini aks ettiradi.

Boshqaruv qulayligi shundaki, guruh aksiyadorlari va ushbu aksiyadorlardan kelib chiqadigan vakolatlar doirasida egalik huquqi shakllanadi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko'p hollarda transmilliy xususiyat kasb etadi va shu sababli xalqaro tartibga solishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari nafaqat moliyaviy ma'lumotlarni yaratish va hisobot berish tartibini tartibga soladi, balki guruhning e'lon qilinadigan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotining tarkibida ochilishi va aniqlanishi zarur bo'lgan ma'lumotlar hajmini ham belgilaydi. Kompaniya guruh ma'lumotlarini tayyorlash va taqdim etish asoslari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida ko'rsatilgan¹.

Natijalarni umumlashtirish kompaniyalar guruhining konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotining asosiy maqsadi iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonida keng foydalanuvchilar uchun foydali bo'ladigan moliyaviy ahvol, moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari va xo'jalik yurituvchi subyektning pul oqimlari to'g'risida tuzilgan axborotni taqdim etishdan iborat ekanini ko'rsatadi. Moliyaviy hisobotlar hisobot davrida resurslardan samarali foydalanish maqsadida mas'ul shaxslarga topshirilgan mablag'lar boshqaruvining natijalarini aks ettiradi. Bunga erishish uchun aktivlar, majburiyatlar, kapital miqdori, daromad va xarajatlar, shu jumladan foyda va zarar, shuningdek kompaniyalar guruhining ustav kapitalidagi va pul oqimidagi boshqa o'zgarishlar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda ko'rsatilishi zarur.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirishni tartibga soluvchi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari me'yorlarini o'rganar ekanmiz, uni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari hisobot ma'lumotlarining birlamchi konsolidatsiyalash bosqichida va keyingi bosqichlarda tegishli kompaniyalar bitim tuzganligi va o'zaro operatsiyalar amalga oshirilganligiga e'tibor qaratilishini talab qiladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda oshkor qilinadigan ma'lumotlar tasdiqlangan hisobot shakllari doirasida ifodalangan bo'lishi mumkin. Moliyaviy hisobotda oshkor etilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar miqdori moliyaviy hisobotning

¹ Golikov V.M. "Organizatsiya i metodika audita konsolidirovannoy finansovoy otchetnosti, sostavlennoy v sootvetstvii s MSFO" Avtoreferat Moskva g. 2007 st.18

xalqaro standartlari bilan tartibga solinadi, qo‘shimcha ma’lumotlar esa foydalanuvchilarning ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda bosh kompaniya tomonidan taqdim qilinadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga kiritilgan sharhlarda majburiy va qo‘shimcha ma’lumotlarni ochib berish manfaatdor ichki va tashqi foydalanuvchilarning diversifikatsiyalangan ehtiyojlarini qondira oladigan, o‘z vaqtida to‘plangan, tegishli, ishonchli va taqqoslanadigan axborotni olish imkonini yaratadi. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asoslangan milliy standartlarni ishlab chiqish orqali milliy standartlarni bosqichma-bosqich moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirishga intilmoqda”¹.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuzilgan hisobotlarda foydalanuvchilar talablari kompaniyalarning birlashtirilgan guruhining holati va faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq hisobotni tayyorlash va taqdim etish jarayonida aniqlanadi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar doirasi keng va xilma-xildir. Umumiy shaklda ularni uch toifaga ajratish mumkin: ichki foydalanuvchilar — korxonalar ishchilari va rahbarlari; korporativ ta’lim faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy qiziqish bildiradigan tashqi foydalanuvchilar (investorlar); tashqi foydalanuvchilar — kompaniyalar guruhining faoliyatiga bilvosita qiziqish bildiradigan shaxslar, tashkilotlar va agentliklar.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida respublikada korxonalarini bir-biriga qo‘shish jarayonini takomillashtirish maqsadida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish va uning auditi uslubiyatini rivojlantirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq bu yo‘nalishda yechilmagan masalalar ham mavjud. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot auditini o‘tkazishga manfaatdor tashkilotlar, organlar va mutaxassislar hali ham ilmiy hamda amaliy nuqtai nazardan yetarli darajada asoslangan, mustahkam metodik baza bilan ta’minlanmagan. Bu holat iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberallashtirish jarayonida korxonalar hamda tashkilotlarda samarali boshqaruvni tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Консолидациялашган молиявий ҳисобот” 10-сон Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти.

2. Голиков В.М. “Организация и методика аудита консолидированной финансовой отчетности, составленной в соответствии с МСФО” Автореферат Москва г. 2007 ст.28

3. Хўжабеков Н.Б. Бизнесни бирлаштиришда консолидациялашган молиявий ҳисоботларни такомиллаштириш: дис. Автореф....и.ф.н., Т.:2009 й.

4. Generalova, N., Soboleva, G., Sokolova, N. (2015): IFRS-Russian Experience: Realities and Challenges, Proceedings of the 25th International-Business-Information-Management-Association Conference, Netherlands, pp. 601-608.

¹Generalova, N., Soboleva, G., Sokolova, N. (2015): IFRS-Russian Experience: Realities and Challenges, Proceedings of the 25th International-Business-Information-Management-Association Conference, Netherlands, pp. 601-608.

5. Ball R., Brown P. The Empirical Evaluation of Accounting Income Numbers. *Journal of Accounting Research*. – Chicago: University of Chicago Press, 1968.
6. Penman S. *Financial Statement Analysis and Security Valuation*. – New York: McGraw-Hill, 2013.
7. Nobes C., Parker R. *Comparative International Accounting*. – Harlow: Pearson Education, 2020.
8. Barth M., Landsman W., Lang M. *International Accounting Standards and Accounting Quality*. *Journal of Accounting Research*. – Chicago: University of Chicago Press, 2008.
9. Holthausen R., Watts R. The Relevance of Value-Relevance Literature. *Journal of Accounting and Economics*. – Amsterdam: Elsevier, 2001.
10. Schipper K., Vincent L. *Earnings Quality*. *The Accounting Review*. – Florida: American Accounting Association, 2003.
11. Epstein B., Jermakowicz E. *IFRS: Interpretation and Application*. – New Jersey: Wiley, 2010.
12. Leuz C., Wysocki P. *Economic Consequences of Financial Reporting and Disclosure Regulation*. *Journal of Accounting Research*. – Chicago: University of Chicago Press, 2016.
13. Kvaal E., Nobes C. *IFRS Adoption and National Accounting Standards*. *Accounting and Business Research*. – London: Routledge, 2010.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**